

# BARKAMOL AVLODLARNI MUSIQA SAN'ATI VOSITASIDA MILLIY MA'NAVIY TARBIYALASHDA VATAN HAQIDAGI QO'SHIQLARNING O'RNI

**Nozbuvi Boychaeva,**  
JDPI Musiqiy ta'lim  
kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yoshlarni musiqa san'ati vositasida milliy ma'naviy tarbiyalashda, Vatan tuyg'usini tarannum etish, uning mazmun va mohiyatini, o'ziga xos xususiyatlarini teran anglashga, musiqa va matn, ovoz imkoniyati hamda yoshlarning ruhiy hissiy holatini, maqsadga yo'naltirishga, ijodiy izlanishga, asarni maromiga yetkazib ijro etishda, ma'suliyatni oshirishda musiqa o'qituvchisining maqsad va vazifalariga qaratilgandir.

**Kalit so'zlar:** musiqa, ovoz, san'at turlarini mukammal tahlil etish va ijro, vatan, milliy ma'naviyat, qo'shiq.

Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga qaratilgan keng imkoniyatlar bugungi kunda yuksak milliy ma'naviyatimizning yuksalishiga katta imkoniyatdir.

Milliy musiqiy ma'naviyatimizning buyuk asoschilaridan Abu Nasr Farobiy musiqani, insonlar o'rtasidagi inoqlik va birodarlikning millat va davlat uchun g'oyat zarurligini, osoyishtalik bo'lishini himoya qiladi. Shu ma'noda Farobiy davridayoq yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashda musiqa san'atining o'rnini ko'rsatib bergan.

Hadis-u shariflarda "Vatanni sevmoq iymondandir" degan rivoyat bejiz aytilmagan. Vatani sevmoq padaru buzrukvorimizni, volida-yu muhtarama onajonimizni asrab avaylashdir. Axir tunlarni tongga ulagan, kechalari bedor bo'lib, beshigimiz uzra bizni tinch osoyishta orom olib katta bo'lishimizni Yaratgandan so'ragan, mehribon, zahmatkash, be'minnat mehr muhabbatini,

jon-u jahonini umrini bizga bag'ishlagan onajonimiz emasmi? Vatan bu barchamizning jon-va tanimizdir. Yangilanayotgan O'zbekistonimizni kun sayin gullab yashnashi, har jabhada rivojlanishi, yuksalishini ta'minlashga shay barkamol avlodlari, vatanparvar va insonparvar yoshlarining aql idroki, zakovati, ilmu fanda, san'at va adabiyotda, sportning barcha turlarida, keng islohatlar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, madaniy, ma'rifiy yangilanishlar bu Vatanparvarlik – insonparvarlik tuyg'usidir. Bu borada taraqqiyot sari ildam borayotgan mustaqil yurtimizda ta'lim va tarbiyaga eng muhim, birinchi galdagi vazifa deb qaralishi barchamizga kuch g'ayrat, baxsh etish bilan birga mas'ullik hissini oshirmoqda. Yurtimiz kelajagi yoshlarni oiladan boshlab, maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta ta'lim maktablarida va barcha barcha yo'nalishlarda yetuk inson, mukammal shaxs sifatlarini uzliksiz ular ongiga singdirishning zaruratini, Vatan tuyg'usini har on birinchi galdagi muqaddas burch sifatida teran anglashimiz, barcha o'zbek ziyolilarining oldimizdagi dolzarb muammodir.

Chunki, musiqa madaniyati darslarini bilimli, tajribali, musiqa o'qituvchisi tashkil etgan darslar, o'quvchilarda milliy ma'naviy tarbiyasiga katta ta'sir etadi. Jumladan: uzliksiz Vatanni asrash, ota-onani qadrlash, ustozga hurmat poklik, halollik, sadoqat, fidoiylilik, ajdodlar merosini o'rganish va ulug'lash kabi mavzudagi qo'shiqlar bolalarda yanada Vatan tuyg'usini teran his etishga, uni ko'z qorachig'idek asrashga yetaklaydi. Musiqa o'qituvchisi eng muhim masalaga e'tiborni qaratishi lozim bo'lgan masalalar quyidagilardan iborat;

-har bir asarni aniq to'g'ri taxlil qilishga odatlash;

-asarning ta'limiy, tarbiyaviy, milliy ma'naviy mazmunini, ham matn, ham musiqiy mohiyatini atroflicha tahlil qilib tushuntirish;

-asrni, nazariy va amaliy puxta o'zlashtirishni aniq reja asosida tadbiq etish;

-o'quvchilarni bolalikdan o'zlikni anglashga, qadimiy qadriyatlarimizga oid tarbiya asoslarini qo'shiqlar vositasida ularning ongiga singdirish;

-qo‘shiqalar vositasida, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida ochiq muloqotlar, savol-javoblar, fikr mulohazalar yuritishni doimiy rejalashtirish;

Demak, barkamol avlodlarni ham jismonan, ham aqlan ma‘nan, sog‘lom, tetik mustaqil fikrlay oladigan g‘ayratli, mehnatsevar, shijoatli avlodlar sifatida, tarbiyalashda musiqa san‘atining o‘rni beqiyosdir. Qadriyatlarimizni o‘rganar ekanmiz, Vatanparvarlik va insonparvarlik haqidagi g‘oyalar azal-azaldan qadrlanib kelinganligi haqidagi manbalarni o‘qiymiz. Abduraxmon Jomiy inson kamolatida musiqaning o‘rni borligiga alohida e‘tibor beradi. Alloma ”Musiqaga haqida risola” asarini yaratgan ekan: -“ U musiqaning ba’zi kuylari insonda ko‘tarinki ruh paydo qilsa, ba’zilari insonda ijodiy ruh paydo qiladi”- deydi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, yoshlarning musiqiy, shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda musiqa san‘atining Vatan tuyg‘usini barkamol avlodlar ongiga singdirishda Vatan haqidagi qo‘shiqlarning o‘rni muhim milliy ma‘naviy tarbiyaviy ahamiyatiga egadir. Yoshlar bilan musiqa madaniyati darslarni tashkil etishda albatta ularning pedagogik hamda psixologik ruhiyatiga va yosh xususitlariga e‘tibor berib, ularga mos asarlarni tanlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, kompozitor Anor Nazarov musiqasi Shoira Sayyora To‘ychieva she‘ri “O‘zimning elim” qo‘shig‘i fikrimizga yoqqol misol bo‘la oladi.

Gulga gul qo‘shilsa, san‘at bo‘ladi,  
Tilga dil qo‘shilsa, millat bo‘ladi,  
Elga el qo‘shilsa, davlat bo‘ladi  
Davlatningdan aylanay, o‘zimning elim.

Bu jummalarda millatimizga xos fazilatlarni, gullarga makon diyorumizni his etamiz. Ajdodlardek tili va dili bir, bag‘rikeng, mehmondo‘st, bolajon o‘zbek millatimizga xos samimiyatni, tildan va dildan faxr bilan his etamiz. Keyingi jumlada O‘zbekistonimizda turli millatlarning o‘zaro tinch-totuvlikda, mehr-oqibatli bo‘lib, azaliy qadriyatlar asosida hamjihatlikda farovon hayotimizni

tasavvur etamiz. O‘zbek xalqiga xos milliylik fazilat andisha, do‘stona munosabatlar bilan to‘ylarda, bayramlarda yaxshi qo‘shnichilik bilan o‘zaro hurmat va qadrdonlikda, quda-anda bo‘lib, yashab kelayotganimiz o‘z ifodasini qo‘shiq vositasida o‘z ifodasini topgan. Barcha millatlarning O‘zbekiston Yagona uyimiz shiori ostida yashayotganligimiz, yangilanayotgan O‘zbekistonda, buyuk ajdodlarimizga munosib vorislarning safi kun sayin jipslashi , jahon miqyosida hech kimdan kam bo‘lmagan aql zakovatli, fidoiy, mard, jasur yoshlarimizning o‘zligimizni chuqur anglashning, shaxs sifatida kamolga yetayotganliklari yorqin bunga misoldir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.A.N.Farobiy “Fozil odamlar shahri” A.Qodiriy nomidagi xalq merosi.T.1993.
- 2.A. Jomiy.”Musiqha haqida risola”.G‘.G‘. nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.T .1992.
- 3.Anor Nazarov.”Navolarim senga, ona yurt”.”O‘qituvchi”-2001
- 4.S.To‘ychieva.”Elim”.”Cho‘lpon” nashriyoti..T-2007.